MAHALLIY XOMASHYOLARDAN QURUQ BETON ARALASHMALARI OLISH TEXNOLOGIYASINI YARATISH

[1]Izzatullayev N., [2]Qurbonova Z.A., [3]Elmamatov F., [4]TillyayevA.D.

[1] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti Kimyoviy texnologiya mutaxassisligi 4- bosqich talabasi

[2]Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti 5- bosqich talabasi

[3] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti Kimyoviy texnologiya mutaxassisligi 4- bosqich talabasi

[4] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti "Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya" kafedrasi dotsenti, k. f. n. (Obidjon@list.ru, +99891 530 03 33)

Quruq qurilish qorishmalari tushunchasi XX asrning 50-60 yillarida paydo bo'lgani bilan, ko'proq nazariyotda uchrar edi. Uning amaliyotda qo'llanilishi asosan XXI asrda, avval garbiy evropada va keyinchalik boshqa qator rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida o'z o'rnini egallay boshladi [1].

Quruq aralashmalar an'anaviy eritmalar va betonlardan yuqori ishlab chiqarish quvvati, bajariladigan qurilish ishlarining madaniyati va sifatini ta'minlash orqali ajralib turadi. Bugunga kelib zamonaviy qurilishlarni bu turdagi mahsulotlarsiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi paytda barcha qurilish materiallarining quruq qorishmalari mavjud, ular savdo shahobchalrida realizasiya qilinib kelinmoqda. Barcha mahsulotlar respublikamiz korxonalarida ishlab chiqariladi [2].

Ammo, shular ichida beton quruq qorishmasigina hozirgacha respublikamizga chetdan xaridorlar tomonidan talab etilganda, jumladan qo'shni Qozog'iston, Xitoy yoki Erondan olib kelib berilmoqda, bu xizmatlardan juda oz mijozlargina foydalanmoqda. Shuning natijasida mahsulot tannarxi oshishi kuzatilmoqda. Bunga sabab bizdagi iqtisodiy va ijtimoiy holatimizdir. Aksariyat iste'molchilar tayyor qorishmani sotib olishdan ko'ra, betonni tashkil etuvchi xomashyolarini: sement, qum, shag'allarni sotib olib, qolgan ishlarni o'zlari bajarib kelishga odatlangan. Bunda albatta, arzonroq mahsulot tayyorlanadi, ammo uning sifati va xizmat madaniyati ikkinchi o'ringa tushadi.

Bundan tashqari markazlashgan quruq qurilish qorishmalari maxsus ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarining yana bir afzalligi – qorishmalar sifatini yaxshilash maqsadida unga

maxsus qo'shimchalar ham qo'shiladi, bu yo'nalishlarda ham hozirda yaxshi natijalarga erishilgan [3]. Mazkur tadqiqot yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi - mavjud texnologiyani mahalliylashtirish bilan bogliq. Ishlab chiqariladigan mahsulot mahalliy xomashyolar bilan bazasi bilan bog'liq, ya'ni qo'llaniladigan quruq beton aralashmasi ingredientlari: qum, shag'al, sement sifatlari (zarrachalari o'lchamlari, ifloslik darajasi, namligi va boshqalar) o'rganilib, mos ravishda DSt (ГОСТ) talablariga javob beradigan darajaga keltirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Shulardan kelib chiqib tadqiqotning maqsadi va vazifalari quyidagilardan ibotat: tanlangan xomashyo bazalarining mahsulotlarini atroflicha o'rganish, xomashyoni talab darajasida tayyorlash, aniq talab etilgan nisbatlarda quruq qurilish qorishmasini olish va uning asosiy ekspluatasion fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish, bajariladigan tayyor mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish.

Tadqiqotning asosiy usuli – mavjud DSt ga asoslangan qurilish materiallarini sinash bo'yica qabul qilingan metod va uslubiyatlar hisoblanadi.



Tadqiqot jarayoni - mavjud savdo shahobchalaridan quruq beton qorishmasi tayyorlasda ishlatiladigan mahsulotlar namunalarini talab darajasida tayyorlash (kerak bo'lganda yuvish, quritish, elaklash va asosiy xossalarini o'rganib, talab darajasigacha etkazishsh), quruq qurilish qorishmasini olish va uning asosiy ekspluatasion fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish, ma'lum nisbatlarda quruq qurilish qorishmasini ishlab chiqarish va kerakli miqdorda o'lchab qadoqlash.

Chu bilan birga yuqori natijalarni ta'minlash maqsadida aralashmaga qo'shiladigan suv moqdorini aniqlash talab etiladi. Har bir qopga qorishmani sifatli tayyorlar shartlari (qo'shiladigan suv miqdoti, aralashtirish sharoitlari va vaqti) ilova qilinadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish esa olingan tayyorlangan mahsulot sifatiga baho berish va uning tannarxini aniqlashdan iborat. Bunda mahsulot sifati bozordagi analoglardan past bo'lmasliga va tannarxi mavjud narxlardan ancha past bo'lishini ta'minlash lozim. Natijada yaratilgan mahsulot va uni ishlab chiqarish texnologiyasi rentabelliligini aniqlash mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Дергунов С.А., Орехов С.А. Сухие строительные смеси (состав, технология, свойства). Учебное пособие. Оренбург. Из-во ОГУ. 2012. –24 с.
2. Повышение качества материалов дорожного и строительного назначения. Сборник научных трудов. Омск. Из-во СибАДИ, 2001. – 223 с.
3. Газиев У.А., Кадирова Д.Ш. Бетон ва қоришмалар учун қўшимчалар. Ўқув қўлланма. Тошкент, ТАҚИ, 2015. -116 b.